

ISSN: 2545-0573

## PIRENEYA YARIM OROLIDA XALIFALIK HUKMRONLIGI QULASHI. TAIFALARGA BO‘LINISH

**Xamidov Shukurullo**

*FarDu Tarix fakulteti 3-bosqich talabasi*

### ARTICLE INFO.

#### **Kalit so‘zlar:**

Pirenaya yarim oroli, taifalar, Kastiliya va Aragon, muluk al-tavoif, Saragosa, Toledo, Badajoz, Granada, Qurdoba, Seviliya, tanazzul, musulmon davlatlari.

### Annotatsiya

Jahon tarixi taraqqiyotida Pirenaya yarim oroli mamlakatlari sivilizatsiyasi muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ushbu mintaqada mamlakatlari xalqlari qadimdan Sharq va G‘arb madaniyati bilan uzviy aloqada bo‘lib kelgan. Ayniqsa, Arab xalifaligi Pirenaya yarim oroliga bosqinlaridan so‘ng, shubu mintaqada tashkil topa boshlagan davlatlar o‘ziga xos rivojlanish yo‘lini boshidan kechirgan va bu jarayonda butun Yevropa taraqqiyotiga katta ta‘sir ko‘rsata olgan. Mazkur maqolada Arab xalifaligining Pirenaya yarim orolidagi hukmronligi qulashi va mustaqil musulmon va xristian davlatlarining tashkil topishi manba va adabiyotlar asosida tahlil qilishga harakat qilingan.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2022 LWAB.

XI-XIII asrlar davomida Ispaniya tarixiy hayotining asosini, avval bo‘lganidek, rekonkista tashkil etdi va uzoq vaqt davomida to‘xtamadi va hal qilivchi g‘alabalarga olib bordi. Tarixdan ma‘lumki, Ispan-arab jamiyati, har holda tipik feodal jamiyat bo‘lgan edi, yirik shaharlar bilan bir qatorda, yarim orolning ichki qismi mahalliy knyazlarning xo‘jalik mustaqilligini saqlab qolishda davom etgandi. Amirlar o‘rtasida doimiy feodal nizolar bo‘lib turgan. Xalifalikning yemirilishi uning feodallashuvining tabiiy natijasi edi va bu XI asrdan boshlab yanada kuchaydi.[6, 90] Yirik feodal yer egalarning kuchayishi, katta yerlarining musulmon hukmdorlari qo‘lida to‘planishi, dehqonlarni ekspluatatsiya qilishning kuchayishi va shaharlarning sud huquqlaridan mahrum bo‘lishi – bularning hammasi amirliklarning ichki zaiflashuviga olib keldi. Bu hol xalifalikni siyosiy jihatdan taraqqiy ettirishda ham aks etdi. XI asr o‘rtalarida xalifalik qisman yirik, qisman mayda feodal davlatlardan iborat bo‘lgan 23 bo‘lakka bo‘linib ketdi (ularning-ba‘zilari shahar respublikalaridan iborat edi).[3, 190]

XI asr nasroniy Ispaniyasining g‘arbiy xristian olamiga qo‘shilishi va al-Andalusning siyosiy qayta tuzilishi bilan tavsiflangan o‘tish davri bo‘ldi. Ispaniyadagi xristian va musulmon hududlari o‘rtasidagi munosabatlarda muhim o‘zgarishlarning boshlandi. Xristian davlatlari Shimoliy Yevropa bilan, ayniqsa Fransiya va papalik bilan munosabatlarini har tomonlama kuchaytirib, Yevropa sivilizatsiyasining asosiy oqimiga kirdi. Ritsarlar, rohiblar, ziyoratchilar, savdogarlar, hunarmandlar va olimlar Pireney shimolidagi mamlakatlardan, ba‘zan yangilik va sarguzasht izlab keldi, lekin ularning kelishdan asosiy maqsadlari shu yerlarda butunlay o‘rnashish va o‘zlari uchun yangi hayot qurish hisoblanardi. Ularning ko‘pchiligi fuqarolik va cherkov ierarxiyasida yuqori martabaga ega bo‘lish baxtiga muyassar bo‘ldi,

shuningdek buning o'ziga hos jihati ularning barchasi Ispaniyani Yevropalashtirish jarayoniga hissa qo'shdi. Biroq, bu jarayon ba'zi muqaddas an'analardan voz kechishni yoki o'zgartirishni talab qildi.

Yangi asr, shuningdek, ikki yangi qirollik - Kastiliya va Aragonning paydo bo'lishi bilan ham belgilandi, ular oxir-oqibat Leon va Navarraning eski qirolliklariga soya soldi. Garchi ikki qirollik XI asr davomida ko'p marotaba qayta birlashgan bo'lsada, Kastiliya o'zining o'ziga xosligini saqlab qoldi va Kastiliyaliklar rekonkista (qayta bosib olish)da harakatlantiruvchi kuch bo'lib xizmat qildilar. Xalifalik bekor qilingandan keyin al-Andalusning parchalanishi ko'plab mayda shohlklarni nasroniy davlatlarining rahm-shafqatiga qoldirdi, ularning hukmdorlari ulardan soliq (o'lpon puli) undirib, ularni butunlay yo'q bo'lib ketishga majbur qildi.[3, 193-194]

1085-yilda Toledo qulagandan so'ng nasroniylarga nisbatan uzoq vaqt davomida kuchlar muvozanati keskin ravishda ularning foydasiga o'zgarib ketgandek bo'ldi. Ammo Musulmon hokimiyatining yaqin orada qulashi Almoravidlar deb nomlanuvchi sekta tufayli uzoq muddatga kechikdi. Almoravidlar musulmon birligini qayta tiklash va kuchayib borayotgan xristian davlatlar qudratini so'ndirish uchun kelishdi. Shunday qilib, asr nihoyasiga yetar ekan, qayta fathning kelajagi hali ham noaniq edi.

1008-yilda al-Muzaffar vafotidan va 1031-yilda Kordova xalifaligining yakuniy bekor qilinishigacha bo'lgan yillarda al-Andalus har biri bir-biridan mustaqil va ko'pincha to'g'ridan-to'g'ri raqobatda bo'lgan turli xil kichik davlatlarga parchalanib ketdi. Xalifalik qulashi bilan mahalliy hukmdorlar – taifalar qirolliklarida mustaqil yo'nalishlarni davom ettirdilar, ularning ba'zilar faqat asosiy shahar va uning yaqin atrofini, boshqalari esa yirik hududlarni nazorat qildilar[6, 97]. Bu kichik davlatlarning hukmdorlari Andalusning Arab tarixchilariga muluk al-tavoiflar sifatida ma'lum edi (Al-Andalus tarixshunosligidagi ko'plab atamalar singari bu sharqa tarixshunosligining ta'sir bo'lib, asl muluk at-tavo'if Iskandar Zulqarnaynning vorislari va Eronning Parfiya hukmdorlariga berilgan nomdir).

Muluk al-tavoif iborasi bu monarxlarning qonuniyligi haqidagi asosiy muammoni aks ettiradi. Ular o'zlarini xalifa yoki butun musulmon jamoasining yetakchisi sifatida ko'rsatishga hech qanday asosli da'vo qila olmadilar. Abdurrahmon xalifalik unvonini o'z zimmasiga olmagani, buni osonlik bilan qilish mumkin emasligini ko'rsatdi. Taifa sulolalarining bir nechtasi arab kelib chiqishini da'vo qilishi mumkin edi, ammo ularning hech biri Umaviylar va hatto Payg'ambarning qabilasidan, Qurayshdan emas edi. Eng oddiy yechim al-Mansur o'rnatgan pretsedent ni davom ettirish va umaviylar nomidan hukmronlik qilishni da'vo qilish edi

Shu tariqa yuqorida aytib o'tganizmiz Kordovaning tanazzuli va qulashi natijasida taifalar – mustaqil musulmon davlatlari paydo bo'ldi. Ularning umumiy soni 33 taga yaqin edi. Pireneya yarim orolida Taifalar hukmronligining 3 ta davri mavjud. Birinchi davr 1009-1110-yillarni o'z ichiga olib, mavjud taifalardan eng kuchlilari Saragosa, Toledo, Badajoz, Granada, Qurdoba va Seviliya hisoblangan.

Arab patritsian oilalari Sevilya va Saragosa kabi yirik shahar markazlarini, shuningdek, Niebla va Mursiya kabi kichikroq shaharlarni egallab olishdi. Saragosada allaqachon mahalliy sulola – Tujibiylar hukmronligi o'rnatila boshlagan bo'lib, ular X asr boshidan buyon shaharning amaldagi xo'jayinlari bo'lib kelgan va an-Nosir va al-Mansurning markazlashtirish siyosatidan omon qolgan [2,137]. Saragosada Tujibiylardan Mundir I at-Tuybi al-Mansur (1013–1021), Yahyo (1021–1036), Mundir II (1036–1038), Abdulloh ibn al-Hakam at-Tujibiy (1039)lar hukmronlik qilgan. Ammo keyinroq hukmronlik Hadidlar(Banu Hud) qo'liga o'tdi va Saragosa 1110-yilga, Almoravidlar tomonidan bosib olingunga qadar ular qo'lida bo'ldi. [5,72-80]

Xalifalik tugatilgandan so'ng Kordovaning o'zi mahalliy zodagonlar konsorsiumi (birlashma) — juma'a tomonidan boshqarilgan. Ularga Abu 'l Hazm ibn Jahvor boshchilik qilib, shayx al-jumoa unvonini oldi. Ibn Jahvor Banu Javhar qabilasining eng ko'zga ko'ringan vakili hisoblangan. Tez orada Abu 'l Hazm Kordovada vazirlar va sudlar kengashiga ega bo'lgan respublika boshqaruv tizimini ishlab chiqdi, u har bir siyosiy qarorni qabul qilishdan oldin ular bilan maslahatlashdi. Abu 'l Hazm davrida Kordova boshqa toifalar kabi bir amir tomonidan emas, balki "jamoah rahbariyati" tomonidan

boshqarilardi. Darhaqiqat, Abu Hazm o'zini o'z xalqining hukmdori deb bilishdan ko'ra, o'zini Kordovaning "qo'riqchisi" sifatida ko'rdi, shahar va uning aholisiga g'amxo'rlik qildi.[4, 52] 1043 yilda vafot etgach, uning o'rniga o'g'li Muhammad ar-Rashid o'tirdi, u 1062 yilda suiqasd natijasida vafot etguniga qadar hukmronlik qildi. Hokimiyat Muhammadning ikki o'g'li Abdurrahmon va Abdulmalik qo'liga topshirildi. Ikki aka-uka tezda bir-birlari bilan janjallasha boshladilar va oxir-oqibat, Abdulmalik ustunlikka erishdi va Abdurrahmonni butun hokimiyatdan mahrum qildi. 1091-yilda taifalik o'z mustaqilligini yo'qotdi.

Badajoz Taifasi hozirgi Portugaliya va Ispaniyaning bir qismida joylashgan edi. 1012-yilda barbarlar Kordovani o'rab olib, ma'muriyatni falaj qilib qo'rganlarida, Badajozni siqlabi qo'mondoni Sabur egallab oladi. 1022-yilda Sabur vafot etdi, undan 2 ta yosh bola qoldi. Saburning o'rnini uning sarkardalaridan biri Ibn al-Aftos egalladi. Ibn Hayyan Ibn al-Aftosning ijtimoiy mavqei bo'lmagan oiladan chiqqanligini, lekin u kuchli, zukko va ayyor bo'lganini aytadi. Ayni payta Seviliya bilan dushmanlik kayfiyati mavjud edi. 1030-yilda Ibn al Aftas Seviliya bilan sulh tuzdi va poytaxt devorlarini qayta qurdirdi. Ibn al-Aftas 1045 yilda vafot etdi va taxtga uning o'g'li Muhammad o'tirdi.[1, 54-55] Uning kotibi Said ibn Hayra o'z asarida uni Al-Muzaffar nomini olganini yozib qoldirgan. 1094-yilda Almoravidlar Badajozda ham o'z hukmronligini o'rnatdi.

Seviliya 1031-yilda Kordova xalifaligi qulagandan so'ng o'z mustaqilligini e'lon qildi. Seviliyani dastlab shahar qozisi bo'lgan Abu al-Qosim (1023-1042) boshqargan va o'ziga amir Abbad I nomini olgan. Uning davrida mamlakat asta sekin o'z qudratini oshira boshladi va uning o'g'li Abbad II al-Mu'tadid (1042-1049) davrida Mertola, Niebla, Saltes kabi hududlarini Seviliya tarkibiga qo'shib oldi. Uning o'g'li Muhammad al-Mo'tamid (1069—1091) Seviliyani iberya-musulmon madaniyatining yirik markaziga aylantirdi. U 1071 yilda Kordovani egallab oldi va 1091-yilgacha shaharni beqaror ushlab turdi. Almoravidlar 1086-yilda Sagrajas jangida nasroniylarni mag'lubiyatga uchratgandan so'ng, boshqa musulmon taifalarini, shu jumladan 1091-yilda Sevilyani ham egallab olishdi.[4,56]

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. E. Levi-Provengal, *Inscriptions Arabes d'Espagne*. – Leiden/Paris, 1931.
2. Hugh Kennedy. *Muslim Spain and Portugal: A Political History of al-Andalus*. – New York. 1996. – pp. 342.
3. O'Callaghan, Joseph F. *A History of Medieval Spain*. New York: Cornell University Press, 2013. pp.792.
4. Mahmoud Makki. *The Legacy of Muslim Spain* / edited by Salma Khadra Jayyusi. – London: The Dictionary of Art, 1994. – pp.1099.
5. Viguera Molins, *Los Reinos de Taifas y las invasiones magrebíes (Al-Andalus del XI al XIII)*. – Madrid: Editorial Mapfre, 1992. pp 377.
6. William D. Phillips Jr; Carla Rahn Phillips. *A Concise History of Spain*. Second edition. – Cambridge: Cambridge University Press, 2016. pp 456.
7. Н.А.Сидоровой (ответственный редактор), Н.И.Конрада, И.П.Петрушевского и Л.В.Черепнина. *Всемирная История*. Том III. – Москва, 1957. с. 884
8. Уотт, У. М. *Мусульманская Испания* / У. М. Уотт, П. Какиа. — М: Наука, 1976. — С. 199.